



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,

*O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor*

XOTIN-QIZLARNING TA'LIM Olishi – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUHIM MEZONLARIDAN BIRI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning ta'lim olishi, jamiyatda o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lishi, har tomonlama rivojlanishi uchun amalga oshirilayotgan ishlar keltirilib, shuningdek, bu boradagi masalalarga yechim topishga harakat qilindi.

Tayanch so'zlar: gender tenglik, jamiyat, oila, xotin-qizlar, ta'lim, huquq.

Аннотация. В статье представлены работы, проводимые для обеспечения образования женщин, улучшения их статуса во всех аспектах общественной жизни, а также предприняты усилия по поиску решений этих вопросов.

Ключевые слова: гендерное равенство, общество, семья, женщины, образование, право.

Annotation. The article presents the works carried out to ensure the education of women, improve their status in all aspects of public life. Efforts are made to find solutions to these issues.

Key words: gender equality, society, family, women, education, law.

Kirish. Ta'lim-tarbiya jamiyat hayot tarziga bog'liq hodisadir. Ijtimoiy muhit va jamiyat hayotining barcha o'ziga xosliklari ta'lim-tarbiyaga yondashuvning biri boshqasidan ajralib turishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, sharq dunyoqarashiga ko'ra, ta'limni-tarbiyadan ajratib bo'lmaydi, ular bir-biriga chambarchas bog'liq jarayonlar sifatida qaraladi. Sharq mamlakatlari kabi g'arb dunyosi ham shaxsning kamol topishidagi ushbu murakkab ikki jarayonning uzviy bog'liqligini ta'kidlashayotgani¹ bejiz emas. Insonning aqliy, ilmiy va madaniy kamol topishi ta'lim orqali amalga oshirilsa, uning ruhiy va ijtimoiy kamoloti tarbiya bilan amalga oshadi. Mana shu murakkab hodisaning amalga oshirilishi pedagoglar orqali namoyon bo'ladi. Pedagogika sohasi vakillari

ham o'z o'rnida ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslikka ko'ra farqlanadi. Sharq xalqlari tajribasi soha rivoji, shuningdek, shaxsning rivojlanishida ayol pedagoglarning o'rnini benihoya ekanini ta'kidlaydi.

Millatlarning o'ziga xos jihatlari, xususan, ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion samaradorlikni ta'minlashda, ma'naviyatini shakllantirishda, avvalo, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan intellektual salohiyatning o'rnini kattadir. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish – yaratish va tarbiyalashda, avvalo, ayollarning o'rnini muhimdir.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iboratdir. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda aynan xotin-qizlar ta'limi, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun

¹ V.V.Krayevskii. Upbringing or Education? Russian Education and Society, 08.012.2014. p. 81-94. (<https://doi.org/10.2753/RES1060-9393441081>)

barcha sharoitlar yaratilmoqda, imkoniyatlar eshigi ochilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlarga yaratib berilayotgan imkoniyat va sharoitlar tufayli ayollarimiz davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning mavqeyi tobora ortib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bugungi kunda xotin-qizlarning ilm-fan bilan ta'lim tizimida ham to'laqonli ishtirok etishi, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, davlat xavfsizligi, ichki va tashqi siyosat masalalarida faol qatnashishi oddiy holga aylanib bormoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, jamiyat tomonidan ularning qo'llab-quvvatlanishiga qarab mazkur davlatning ilg'orligi, taraqqiy etganlik darajasi va tutgan mavqeyini aniqlash mumkin.

Yurtimizda xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Shu tufayli mamlakatimiz xotin-qizlari ilm-fan taraqqiyotining barcha sohalarida rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda akademik, fan doktori, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lgan olim ayollar fan tarmoqlarining turli sohalarida ilmiy faoliyat olib bormoqda. Dunyoning nufuzli davralarida o'zbek olimlari so'z olmoqda, salohiyati tilga tushmoqda.

Endilikda faol xotin-qizlar bilan tizimli ishlash, ularni rahbarlikka tayyorlash maqsadida ta'lim muassasalarida iqtidorli qizlarning zaxirasi yaratildi. Oxirgi uch yilda iqtidorli talabalarga beriladigan Prezident Davlat stipendiyasi va boshqa maxsus stipendiyalarning salkam ellik foizi xotin-qizlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Prezidentimizning sa'y-harakatlari natijasida jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada joriy yildan boshlab doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratish rejalashtirildi.

Bu ishlarni tizimli ravishda tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida, Oila va xotin-qizlar

davlat qo'mitasi huzurida "Olima ayollar jamiyati" tuzildi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ushbu jamiyat mamlakatimizda va xorijda ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishayotgan olim ayollarimizni jipslashtirib, ularning aql-zakovat nuri hayotimizning har bir jabhasiga kirib borishi uchun o'ziga xos parvoz maydoniga aylanadi.

Asosiy qism. Ayollar huquqlari uchun kurash tarixi uzoq yillar davomida hukm surgan o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda esa ushbu an'anaviy tizim o'z o'rnini yangicha qarashlarga bo'shatib, ayollarning hayotida ijobiy o'zgarishlar yasamoqda. Bu esa, o'z navbatida, gender tengligi mavzusini keng muhokama qilnadigan eng muhim – davlat miqyosidagi mavzulardan biriga aylantirmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda gender tengligi, ayollar huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy o'zbek ayollari nafaqat g'amxo'r ona va turmush o'rtoq, balki jamiyat hayotining faol ishtirokchisi, davlat xizmatchilari hamdir. Ushbu so'zlarning amaliy isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi – Tanzila Norboyeva, O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi – Zulayho Mahkamova, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – Svetlana Ortiqova kabi boshqa ko'plab davlat arboblari keltirish mumkin.

Yangi O'zbekiston davrida genderlararo adolat mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga tobora ko'proq jalb qilina boshladi. Bu tendensiya zamonaviy texnologiyaning paydo bo'lishi bilan kuchaydi. Bugungi kunda qonunchilik darajasida ayollar huquqlarini kamsitish va oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan zamon bilan hamnafas – O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-sonli hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli hamda "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmonlari buning

yorqin namunasi bo'la oladi. Ushbu revolyutsion yangicha qonunlar va farmonlar xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan ehtirom, yoshidan qat'i nazar har tomonlama qo'llab-quvvatlash, va hatto oliy ta'lim olishiga ko'maklashishga qaratilayotgan davlat siyosati ularni eski qarashlar va stereotiplardan xoli hayot kechirishga chaqirmoqda.

Xususan, ushbu islohotlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Maqolamizning asosiy maqsadi – O'zbek olim ayollarining pedagogika sohasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va yosh avlod ta'lim-tarbiyasi haqida so'z borar ekan, yurtimiz pedagog olim ayollarining erishgan yutuqlari haqida ba'zi fikr-mulohazalarimizni bayon etamiz.

Olimalar mamlakatimizda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablariga to'la javob beradigan malakali xodimlar tayyorlab yetishtirish jabhalarida fidoyilik ko'rsatmoqdalar, O'zbekiston sharafigi ulug'lamoqdalar. O'zbek pedagog olimlari o'z yurtini jahondagi rivojlangan davlatlar safiga qo'shilishini ta'minlashga samarali hissa qo'shmoqdalar. Ularning bu fidoyiligi va jasorati, Vatanga sadoqati, xalqiga muhabbati, ilmiy salohiyati beqiyos bo'lib, tahsinga sazovordir.

O'zbek pedagog olimalarining hayot yo'li va turmush tarzi, olib borayotgan ilmiy va jamoat ishlari respublika xotin-qizlarining g'urur, faxr-iftixori va shon-shuhratidir. Ular erkaklar bilan yonma-yon turib, o'zlarining bitmas-tuganmas qudratini namoyon qilmoqdalar.

Yuqorida aytilgan so'zlardan shunday xulosa qilish mumkinki, mavzuning dolzarbligi va muammo bayoni ushbu mutaxassislik jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida har qanday darajadagi mutaxassislarga talablarni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda islohotlarni amalga oshirishning samarali usullarini izlash, oliy ta'lim sifati, bo'lajak mutaxassislarni yetuk kadrlar qilib tarbiyalashga ta'sir qiluvchi muhim shartlardan biri bu ularning bilim, ko'nikma va malakalar tizimini sifatli o'zlashtirishga qaratilgan to'laqonli o'quv-kognitiv faoliyatini tashkil etish hamda ijodiy faoliyati tajribasini boshqarishdir. Maqsad – yosh avlod ta'lim-tarbiyasi ekan, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash darajasini boshqarish tizimining ishlashini ta'minlaydigan vositalar majmuasida talabalarning o'quv va

kognitiv faoliyati jarayoni va natijalarini ilmiy asoslangan, puxta rejalashtirilgan va oqilona tashkil etilgan nazoratini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

O'quvchi va talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish muammosi o'rta va oliy ta'lim didaktikasi hamda pedagogik psixologiya uchun yangilik emas. Jumladan, yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, madaniy insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish hamda bo'lajak mutaxassislar shaxsini shakllantirishning g'oyaviy asoslari masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar Sh.Shodmonova², Z.K.Ismoilova³lar tomonidan olib borilgan.

An'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatlarga egaligi pedagogning kreativligini belgilovchi asosiy mezonlardir. Mazkur mezonlar o'qituvchilarning o'z-o'zini ijodiy namoyon qila olish layoqatiga egaligi va unga tayyorgarlik darajasini ham ifodalaydi.

O'zbekistonning yaqin va o'rta kelajagi taraqqiyotini bevosita belgilab beruvchi omil – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

"Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Endilikda xotin-qizlar ta'limi, ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun

² Шодмонова Ш.С. Олий ўқув юрти талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш (Касб таълими йўналиши мисолида): Пед. фан. док. ...дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2010.

³ Исмоилова З.К. Бўлажак мутахассислар шахсни шакллантиришнинг ғоявий асослари // Kasb-hunar ta'limi jurnali. – №3, 2007. – Б.18.

bir qancha yangiliklar joriy etildi. Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan, sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlari ajratilishi; davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat byudjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirilishi; xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha – 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratilishi; 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplab borilishi; mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy

qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish amaliyotining joriy etilishi; davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi; asosan, xotin-qizlarga dizayn, to'qimachilik, axborot texnologiyalari, tarmoqlar iqtisodiyoti, marketing va talab yuqori bo'lgan boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim beradigan alohida universitetning tashkil etilishi; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o'qitishning yangi tartibi joriy etilishi mamlakat xotin-qizlari uchun yaratilgan sharoitlar jumlasidandir.

Xulosa. Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yuksak cho'qqilariga eltuvchi ulkan maqsad va vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda esa xotin-qizlarning o'zni har qachongidan-da ortib bormoqda. Shu bois davlatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan vazifalar belgilab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V.V.Krayevskii. Upbringing or Education? Russian Education and Society, 08.012.2014. p. 81-94. (<https://doi.org/10.2753/RES1060-9393441081>)
2. Shodmonova Sh.S. Oliy o'quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta'limi yo'nalishi misolida): Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent: TDPU, 2010.
3. Ismoilova Z.K. Bo'lajak mutaxassislar shaxsini shakllantirishning g'oyaviy asoslari // Kasb-hunar ta'limi jurnali. – №3, 2007. – B.18.
4. https://uza.uz/uz/posts/nizoli-oilalar-bilan-individual-ishlash-daftari-loyihasi-ishlab-chiqildi_363070?q=%2Fposts%2Fnizoli-oilalar-bilan-individual-ishlash-daftari-loyihasi-ishlab-chiqildi_363070
5. <https://iiv.uz/oz/news/farovon-kelajak-sari-respublika-forumi-yakunlari>
6. <https://wcu.uz/oz/lists/view/114>